

KALTA MINOR: TARIXI, ME'MORIY XUSUSIYATLARI VA MADANIY AHAMIYATI

Omonova Madinabonu O'tkir qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Tarix yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xiva shahridagi Ichan qal'ada joylashgan Kalta minorning qurilish tarixi, me'moriy xususiyatlari va madaniy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada Muhammad Aminxon davrida (1851–1855) boshlangan va to'xtatib qoldirilgan qurilish jarayoni, minoraning o'ziga xos nisbati, ko'k-yashil koshinlar bezagi va uch qatlamli naqsh tizimi tahlil etiladi. Shuningdek, Kalta minorning 1990 yilda YuNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi va bugungi muhofaza ishlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar

Kalta minor, Xiva, Ichan qal'a, Muhammad Aminxon, me'morchilik, koshin bezagi, Jahon merosi, YuNESKO, Markaziy Osiyo.

Аннотация

В данной статье рассматриваются история строительства, архитектурные особенности и культурное значение минарета Калта-минор, расположенного в Ичан-кале города Хивы. Анализируется строительный процесс, начатый по приказу Мухаммада Аминхана в 1851 году и прерванный в 1855 году, а также своеобразные пропорции минарета, его облицовка сине-зелёными изразцами и трёхъярусная система орнамента. Отдельное внимание уделяется включению Калта-минора в список Всемирного наследия ЮНЕСКО в 1990 году и современным реставрационным работам.

Ключевые слова

Калта-минор, Хива, Ичан-кала, Мухаммад Аминхан, архитектура, изразцовое убранство, Всемирное наследие, ЮНЕСКО, Средняя Азия.

Abstract

This article examines the construction history, architectural characteristics, and cultural significance of the Kalta Minor minaret located in the Ichan Kala of Khiva. It analyses the building process initiated under Muhammad AminKhan in 1851 and halted in 1855, the minaret's distinctive proportions, its blue-green tilework cladding, and the three-tiered ornamental system. Special attention is given to the inscription of Kalta Minor on the UNESCO World Heritage List in 1990 and current conservation efforts.

Keywords

Kalta Minor, Khiva, Ichan Kala, Muhammad Aminkhan, architecture, tilework, World Heritage, UNESCO, Central Asia.

O'rta Osiyoning ulkan me'moriy merosini o'rgangan har qanday tadqiqotchi Xiva shahriga, aniqrog'i uning qadimiy Ichan qal'asiga alohida e'tibor qaratadi. Bu devorbandi shaharcha ichida joylashgan inshootlar o'z davridagi hunarmandchilik va me'morchilik san'atining yuqori cho'qqisini aks ettiradi. Ular orasida Kalta minor — to'liq qurib bitkazilmagan, ammo o'zining ulkanligi, noyob bezaklari va to'xtatilmay ketgan qurilish tarixi bilan alohida ajralib turadi.

Minora XIX asrning o'rtalarida boshlangan va o'sha asrdayoq to'xtatilgan qurilish loyihasining natijasidir. Shunga qaramay, u nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo me'morchilik tarixida muhim o'rin egallaydi. Uning hozirgi holati — yarim qurilgan va yarim qoldirilgan — o'ziga xos bir sirni saqlaydi: agar qurilish oxiriga yetkazilganida, bu minora o'z davrining eng yirik inshootlaridan biriga aylanishi muqarrar edi. Ushbu maqolada Kalta minorning qurilish tarixi, uning me'moriy va badiiy xususiyatlari, shuningdek, madaniy va tarixiy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Kalta minor qurilishi 1851 yilda Xiva xoni Muhammad Aminxon (1845–1855) farmoni bilan boshlangan.⁴ Muhammad Aminxon o'z hukmronligi davrida nafaqat harbiy, balki me'moriy sohadagi buyuk rejalar bilan ham tanilgan. U Buxorodagi mashhur Kalon minoridan (46,5 metr) balandroq, Markaziy Osiyodagi eng ulkan minorani qurdirishni niyat qilgan. Dastlabki loyihaga ko'ra, minoraning balandligi 70–80 metrga, diametri esa 14 metrdan oshiqqa yetishi mo'ljallangan edi.⁵

Qurilish sur'ati juda tez bo'lgan — ishchi va ustalar kecha-kunduz tinim bilmay mehnat qilishgan, deyiladi. Ammo taqdirning o'yni bilan bu ish oxiriga yetmadi. 1855 yilda Muhammad Aminxon Qo'qon xonligi bilan bo'lgan jangda hayotdan ko'z yumadi va qurilish birdan to'xtab qoladi.⁶ Yangi hokimiyat kelgan xonlar minora qurilishini davom ettirish haqida qaror qabul qilmadi va u shunday — 26 metr balandlikda, tugallanmagan holda — qolib ketdi. Keyinchalik xalq uni «kalta» — ya'ni qisqa, yarim qolgan deb atay boshladi va bu nom rasmiy nomdan ham mashhurroq bo'lib ketdi.

Tarixchilar o'rtasida qurilishning to'xtatilish sabablariga doir turli qarashlar mavjud. Bir guruh olimlar asosiy sababni xonning to'satdan vafot etishida ko'rsa, boshqalar moddiy resurslarning kamayishi yoki loyihadagi texnik muammolarni ham eslatib o'tishadi.⁷ Har qanday holda ham, bu minora tugallanmagan holda qolsa-da, o'zining ulkan diametri va noyob bezaklari tufayli tarixiy ahamiyatini yo'qotmagan.

⁴Пугаченкова Г.А. Самарканд. Бухара. — Москва: Искусство, 1968. — С. 214.

⁵Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. — Москва: Академия архитектуры СССР, 1948. — С. 102–104.

⁶O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. — Toshkent: O'zME, 2003. — B. 312.

⁷Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. — Москва: Искусство, 1982. — С. 176–179.

Kalta minorning me'moriy jihatdan eng e'tiborli xususiyati uning nisbatidir. Odatdagi minoralar yuqoriga ko'tarilgan sari ingichkalashib boradi va cho'zinchoq ko'rinish kasb etadi. Kalta minor esa — aksincha — asosining diametri 14,2 metrga yetib, uning balandligiga nisbatan g'ayrioddiy keng va massiv ko'rinadi.⁸ Aynan shu nisbat unga o'zgacha qiyofa beradi va uni boshqa minoralardan darhol ajratib turadi. Ba'zi tadqiqotchilar bu keng asosni loyihaning boshlang'ich bosqichlari sifatida ko'rib, qurilish oxiriga yetganda minoraning tepasi ancha ingichka bo'lishi ko'zda tutilgan degan fikrni ilgari suradi.

Minoraning tashqi yuzasi ko'k va yashil rangli sirli koshinlar bilan qoplangan. Bu koshinlar geometrik va islimiy naqshlar bilan to'lib, ular orasida arabcha yozuvlar ham uchraydi. Koshinlarning rang soyalari — to'q ko'kdan ach-yashilgacha — juda ko'p bo'lib, ular kunning turli vaqtida yorug'lik ta'sirida o'zgarib turadi.⁹ Bu hol binoga jonli va o'zgaruvchan ko'rinish beradi, bu esa Xiva koshinchilik maktabining yuksak mahoratini aks ettiradi. Minora devori uch gorizontaal qatlamga bo'lingan va har bir qatlam o'ziga xos naqsh tizimiga ega. Pastki qismda mayda va murakkab geometrik shakllar ustunlik qilsa, o'rta qismda islimiy o'simliksimon naqshlar, yuqori qismda esa yirikroq medalyonlar va kufiy xat elementlari ko'zga tashlanadi.¹⁰ Bu ko'tarilishga qarab naqshning yiriklanishi — tasodif emas, balki puxta o'ylangan me'moriy yechim. Yuqoridan qaragan tomoshabin uchun naqshlar bir xil kattalikda ko'rinsin deb, pastgi naqshlar qasdan kichik qilib ishlangan. Minoraning ichki qismida vintsimon zina joylashgan bo'lib, u atigi bir kishi o'tishi mumkin bo'lgan tor yo'lakdan iborat. Zinalar pishiq g'ishtdan ishlangan va hozir ham nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. Minoraning ustki platformasiga chiqilsa, Ichan qal'asining deyarli butun hududi ko'rinadi.

Kalta minor o'z davrida qurib bitkazilmagan bo'lsa-da, u Xiva xonligining XIX asrdagi madaniy va siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan. Muhammad Aminxon bu minora orqali o'z saltanatining qudratini namoyon qilmoqchi bo'lgan. Tarixiy manbalar ko'rsatishicha, xon qurilish uchun juda katta mablag' ajratgan va hatto boshqa qurilish ishlarini vaqtincha to'xtatgan.¹¹ 1990 yilda YuNESKO tomonidan Ichan qal'a — va u bilan birga Kalta minor ham — Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Bu qaror minoraning nafaqat mahalliy, balki global miqyosdagi madaniy va tarixiy ahamiyatini rasmiy tan olish bo'ldi. O'sha paytdan beri Xiva shahrida turizm keskin rivojlandi va Kalta minor shaharga kelgan sayyohlarning eng ko'p tasvirga oladigan obidalaridan biriga aylandi.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati Kalta minorni muhofaza qilish va ta'mirlash ishlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Koshinlarning bir qismi vaqt o'tishi bilan yemirilgan bo'lsa-da, mutaxassislar ularni qayta tiklash ustida ish olib bormoqda.

⁸Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX — начало XX в.). — Ташкент: Фан, 1980. — С. 134–137.

⁹Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.). — Ташкент: Фан, 1966. — С. 56.

¹⁰Ахмедов Б.А. История Балха (XVI — первая половина XVIII в.). — Ташкент: Фан, 1982. — С. 98–101.

¹¹Хо'jaev А. O'zbekiston me'morchiligi tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — B. 198–203.

Bunda asl koshinlarning kimyoviy tarkibi, rangi va shakli aniqlab olinib, ularga imkon qadar yaqin bo'lgan yangi nusxalar tayyorlanmoqda. Qiziqarli tomoni shundaki, Kalta minorning tugallanmaganligi uni bir tomondan «nuqsonli» qilsa-da, boshqa tomondan unga alohida joziba baxsh etadi. Sayyohlar va rassom-fotochilar ko'pincha aynan shu tomonini — keng, qisqa, koshinlarga burkangan tanasini — «mukammal» deb ta'riflashadi. Minoraning hozirgi silueti Ichan qal'a manzarasida shunchalik mustahkam o'rnaib qolganiki, uni to'liq qurilganini tasavvur qilish hatto qiyin tuyuladi.

Xulosa qilib aytganda Kalta minor — O'zbekiston me'morchilik merosining noyob va o'ziga xos yodgorligidir. U to'liq qurib bitkazilmagan bo'lsa-da, o'zining ulkanligi, ko'k-yashil koshinlardagi nafis bezaklari, murakkab naqshlari va boy tarixi bilan har qanday tomoshabinga chuqur taassurot qoldiradi. Bu minora Muhammad Aminxon davrining ambitsiyali me'moriy orzularini, Xiva hunarmandchilik maktabining mahoratini va O'rta Osiyo xonliklarining XIX asrdagi madaniy hayotini yorqin ifodalaydi.

Minoraning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi uning xalqaro miqyosdagi qiymatini tasdiqladi. Bugun u nafaqat tarixiy yodgorlik, balki Xivaning, umuman O'zbekistonning timsoli sifatida ham qaraladi. Kalta minorni kelgusi avlodlarga saqlab qoldirish esa nafaqat davlat, balki jamiyat mas'uliyati hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Пугаченкова Г.А. Самарканд. Бухара. — Москва: Искусство, 1968. — 280 с.
2. Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. — Москва: Академия архитектуры СССР, 1948. — 196 с.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. — Toshkent: O'zME, 2003. — 704 b.
4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. — Москва: Искусство, 1982. — 288 с.
5. Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX — начало XX в.). — Ташкент: Фан, 1980. — 183 с.
6. Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.). — Ташкент: Фан, 1966. — 311 с.
7. Ахмедов Б.А. История Балха (XVI — первая половина XVIII в.). — Ташкент: Фан, 1982. — 296 с.
8. Хо'jaev A. O'zbekiston me'morchiligi tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — 312 b.